

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOIYLASHUVI JARAYONI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Yarashova Sitora Yermamatovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

“Psixologiya (Social Psychology)” yo‘nalishi

2-kurs magistranti.

Tel. +998934350637

E-mail. @sittoras2501

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiylashuv tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari hamda uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishidagi o‘rni har tomonlama tahlil qilingan. Ijtimoiylashuv atamasining kelib chiqishi, fan doirasida shakllanishi va turli olimlar tomonidan berilgan talqinlar yoritilgan. Tadqiqotda bolalar ijtimoiylashuvining uzluksiz jarayon ekanligi, ushbu jarayonning dastlabki va eng muhim bosqichi aynan maktabgacha yosh davriga to‘g‘ri kelishi asoslab berilgan.

Maqolada bolalar ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi asosiy omillar — oila, tengdoshlar guruhi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, milliy madaniyat, axborot muhitlari hamda psixologik xavfsizlikning ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiylashuvning bosqichlari va mexanizmlari (I.P. Podlasiy tasnifi asosida) tahlil qilinib, 5–7 yoshli bolalar uchun xos bo‘lgan yetakchi mexanizmlar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiylashuv, maktabgacha yosh, bola shaxsi, ijtimoiy moslashuv, milliy qadriyatlar, ijtimoiy muhit, oila, tengdoshlar guruhi, maktabgacha ta’lim tashkiloti, ijtimoiy identitet, ijtimoiylashuv mexanizmlari, identifikatsiya, empatiya, psixologik xavfsizlik.

Annotation. This article comprehensively analyzes the scientific and theoretical foundations of the concept of socialization and its role in the development of preschool children. The origin of the term socialization, its formation within the framework of science, and interpretations given by various scientists are highlighted. The study substantiates that the socialization of children is a continuous process, and the initial and most important stage of this process corresponds to the preschool period.

The article highlights from a scientific point of view the main factors influencing the socialization of children-family, peer groups, preschool educational organizations, national culture, information environments, and the importance of psychological security. Also, the stages and mechanisms of socialization (based on the classification of I.P. Podlasy) were analyzed, and the leading mechanisms characteristic of children aged 5-7 years were identified.

Keywords: Socialization, preschool age, child personality, social adaptation, national values, social environment, family, peer group, preschool educational organization, social identity, socialization mechanisms, identification, empathy, psychological security.

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализированы научно-теоретические основы понятия социализации и ее роль в развитии детей дошкольного возраста. Освещены происхождение термина "социализация," его формирование в рамках науки и интерпретации, предложенные различными учеными. В исследовании обосновано, что социализация детей - это непрерывный процесс, причем начальный и самый важный этап этого процесса приходится именно на дошкольный возраст.

В статье с научной точки зрения рассмотрены основные факторы, влияющие на социализацию детей- семья, группа сверстников, дошкольные образовательные организации, национальная культура, информационная среда, а также значение психологической безопасности. Кроме того, были проанализированы этапы и механизмы социализации (на основе классификации И.П. Подласого) и выявлены ведущие механизмы, характерные для детей 5-7 лет.

Ключевые слова: Социализация, дошкольный возраст, личность ребенка, социальная адаптация, национальные ценности, социальная среда, семья, группа сверстников, дошкольная образовательная организация, социальная идентичность, механизмы социализации, идентификация, эмпатия, психологическая безопасность..

Introduction. Har bir fan mavjud bilimlarni taqdim qilishda ma'lum bir atamalardan foydalanadi. Shuningdek, psixologiya sohasida qo'llaniladigan ijtimoiylashuv so'zi ham fanga xos bo'lgan bilimlar haqida ma'lumot beradi. Aslida "ijtimoiylashuv" so'zi siyosiy iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy iqtisodiyotda yer, ishlab chiqarish vositalarining umumlashuvi ma'nosini anglatgan. "Ijtimoiylashuv" atamasini birinchi bo'lib insonlarga nisbatan qo'llagan amerikalik sotsiolog F.G.Keddings hisoblanadi. U "Ijtimoiylashuv nazariyasi" (1887) kitobida hozirgiga yaqin ma'noda "ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir" degan fikrni bildiradi.¹Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kritgan olim Maks Veberg uni muammolarni hal qilishga qaratilgan harakat deya ta'riflagan.

Shuningdek, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir. Bu jarayonning poydevori maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi. Tarbiyalanuvchilar yoshiga xos bo'lgan faoliyat turi, ya'ni o'yin orqali sekin astalik bilan ijtimoiy hayotga kirib boradi. Ayrim manbalarda ijtimoiylashuv deganda bolaning tarbiyasi haqida so'z boradi.

¹ "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" B.S.Abdullayeva, G.B.Rizayeva.(o'quv-uslubiy qo'llanma)

Aslini olganda, tarbiya ham sotsializatsiyaning bir tarkibiy qismidir. Milliy qadriyatlar va tashqi muhit tarbiyaning omillari sanaladi. Bolalarni ijtimoiylashuv jarayonida milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ham ijtimoiylashuvni me'yorida kechishini ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim yoshi shaxs shakllanishi hamda tarbiya berish uchun eng asosiy bosqichdir. Bu davrda bola tarbiyaga muhtoj bo'ladi. Yillar o'tib shaxs o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida o'tadi. Bu jarayonda turli xil nizoli vaziyatlarga duch kelmaslik uchun milliy qadriyatlar bolalar ongida maktabgacha yosh davrida ijobiy va ongli ravishda singishi ahamiyatlidir. Barcha bolalarning ijtimoiylashuvi bir maromda kechmaydi, albatta. Ayrim tarbiyalanuvchilarda dizaptatsiya holati yuzaga chiqadi. Ya'ni bolalarning ijtimoiylashishda qiyinchilikka duch kelib, jamiyatga moslashishi murakkablashadi. Bunday holatdagi bola bilan individual chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Ijtimoiylashuvning dastlabki bosqichi bo'lgan maktabgacha yosh davri, bolaning asosiy shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadigan davr bo'lib, bu jarayon bolada atrof-muhit bilan munosabat o'rnatishning psixologik asoslarini yaratadi. Ijtimoiylashuvning maktabgacha yosh davridagi ahamiyati shundaki, bu bosqichda bola nafaqat o'zining asosiy shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarini egallaydi, balki uning ijtimoiy identiteti, hissiy va kommunikativ qobiliyatlari ham shakllanadi. Shu sababli, bu davrda bola atrof-muhit bilan faol o'zaro aloqada bo'lib, o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglashni boshlaydi va bu jarayon uning kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvining birinchi va eng asosiy muhiti bu — oiladir. Oila bolaning shaxsiy rivojlanishi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Ota-onaning munosabati, tarbiya uslubi (avtoritar, demokratik, liberal) bolaning o'zini anglashiga, xulq-atvoriga va boshqalar bilan bo'lgan aloqalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, oilaviy mehr-muhabbat, psixologik qo'llab-quvvatlash, nazorat darajasi va kommunikatsiya sifati bolaning ijtimoiy moslashuviga kuchli ta'sir qiladi. Oiladagi ijtimoiy-madaniy muhit va uning doimiy barqarorligi ham bolaning ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bola oilasida o'zini xavfsiz va qo'llab-quvvatlangan his qilganda, uning ijtimoiy ko'nikmalari va emotsional barqarorligi yanada mustahkamlanadi. Shuningdek, ota-onaning o'zaro munosabatlari va oiladagi konfliktlarni hal qilish usullari ham bolaning ijtimoiy munosabatlarni o'rganishiga va jamiyatdagi turli vaziyatlarga moslashishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun oilaning ijtimoiy va psixologik muhitini yaxshilash orqali bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Yoshdoshlar guruhi bola ijtimoiy tajriba orttiradigan ikkinchi muhim muhitdir. Bolalar o'z tengdoshlari bilan muloqot qilish jarayonida hamkorlik, o'z nuqtayi nazarini ifodalash, konfliktlarni hal qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni

egallaydi. Parten tomonidan taklif etilgan o'yin bosqichlari shuni ko'rsatadiki, bola o'z o'yin faoliyati orqali ijtimoiy rollarni tajriba sifatida sinovdan o'tkazadi. Yoshdoshlar guruhi bolaning ijtimoiylashuvida faqat ko'nikmalarni o'rganish emas, balki o'ziga nisbatan ijtimoiy identitetni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega.² Tengdoshlar bilan muloqot orqali bola o'zini guruhning qaysi a'zosi ekanligini anglaydi, guruh ichidagi o'z o'rnini va rolini sinab ko'radi, shuningdek, ijtimoiy qoidalar va me'yorlarni mustahkamlaydi. Bu jarayon bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sababli yoshdoshlar guruhi ijtimoiylashuvda amaliy maydon bo'lib, bolaning shaxs sifatida yetilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolaning ijtimoiylashuvida tashqi ijtimoiy institut sifatida xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Ta'lim muassasasining ijtimoiy-psixologik iqlimi, pedagoglarning emotsional yondashuvi, dars va o'yin jarayonlaridagi ijtimoiy o'zaro ta'sirlar bola uchun ijtimoiy tajriba maydoniga aylanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari nafaqat ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish, balki bolaning mustaqil fikrlashini, mas'uliyat hissini va jamoaviy ishga tayyorligini rivojlantirish uchun ham muhim platforma hisoblanadi. Bu muassasalarda yaratiladigan iliq va qo'llab-quvvatlovchi muhit bolaning o'zini erkin ifoda etishiga, boshqalar bilan samarali muloqot qilishiga imkon yaratadi, shuningdek, ijtimoiy qoidalarga rioya qilish va guruh ichida hamkorlik ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shu tariqa, maktabgacha ta'lim muassasalari bolaning ijtimoiylashuv jarayonida o'ziga xos ijtimoiy-hissiy va axloqiy rivojlanishining asosiy maydoniga aylanadi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning turli madaniy va ijtimoiy fonlarda o'sib kelayotgan tengdoshlar bilan muloqot qilish imkonini beradi, bu esa ularning madaniy ongini kengaytiradi va ijtimoiy moslashuvchanlikni oshiradi. Shuningdek, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan o'yin va interaktiv usullar bolalarda ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ularning kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyatlari uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda bolalar turli axborot vositalariga, shu jumladan televizor, planshet, telefon va internet orqali tarqatilayotgan axborotlarga nisbatan ochiqdirlar. Albert Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida qayd etganidek, bola modellashtirish (ya'ni, kuzatish orqali o'rganish) orqali o'zlashtirgan obrazlar uning xulq-atvoriga, qadriyatlariga ta'sir etadi. Zamonaviy raqamli muhit bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga yangi imkoniyatlar va xavflar ham olib keladi. Ular osonlik bilan turli obrazlar va xulq-atvor namoyishlarini ko'rib, taqlid qilishi mumkin, shu bilan birga, noto'g'ri yoki zararli modellar ta'sirida noto'g'ri ijtimoiy qoidalarni o'zlashtirish xavfi ham mavjud. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglarning bu jarayonni nazorat qilib, bolalarga sog'lom va ijobiy modellarni tanlashda ko'maklashishi juda muhimdir.

² Tomlinson, J. (1999). *Globalization and Culture*. Cambridge: Polity Press.

Har bir bolani ijtimoiylashuvi uning milliy madaniyatiga ham bog‘liq. Urf-odatlar, diniy tushunchalar, milliy an‘analar bolaning kimligini anglashiga va ijtimoiy rollarni qabul qilishiga yordam beradi. Bu omillar ijtimoiy ongning rivojlanishi va shaxsiy identitet shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Milliy madaniyat bolaning ijtimoiy normalar, qadriyatlar va axloqiy me‘yorlarni qabul qilishida asosiy yo‘naltiruvchi bo‘lib, u orqali bola o‘zining jamiyatdagi o‘rnini va vazifalarini anglaydi. Milliy an‘analar va urf-odatlar shuningdek, bolaga oilaviy va jamoaviy munosabatlarni tushunishda yordam beradi, bu esa uning ijtimoiy muhitga moslashuvini osonlashtiradi. Shuningdek, madaniyat orqali uzatiladigan til, folklor va san‘at elementlari bolaning emotsional va estetik rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatib, uning shaxsiy identitetini boyitadi hamda ijtimoiy o‘zini anglash jarayonini chuqurlashtiradi.

Bola o‘zini emotsional jihatdan xavfsiz his qilgan muhitda ijtimoiylashuv ancha faol kechadi. Psixologik xavfsizlik bola fikr bildirishdan, muvaffaqiyatsizlikdan yoki rad etilishdan qo‘rqmaydigan holat. Agar bola oilada yoki bog‘chada shaxs sifatida qadrlansa, u ijtimoiy aloqalarni mustaqil o‘rganishga intiladi. Maslow ehtiyojlar ierarxiyasiga ko‘ra, “ijtimoiylik” (do‘stlik, yaqinlik, guruhga tegishlilik) ehtiyoji insonning asosiy ehtiyojlaridan biridir. Bu ehtiyojlar to‘liq qondirilganida bola jamiyatda faolroq ishtirok eta boshlaydi. Psixologik xavfsizlik bolaning o‘zini erkin ifoda etishi, yangi ijtimoiy tajribalarni sinab ko‘rishi va xatolardan qo‘rqmasdan o‘rganishi uchun muhim shart hisoblanadi. Bunday muhitda bola o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, stress darajasi kamayadi va ijtimoiy muammolarni hal qilishda kreativ yondashuvlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, pedagoglar va ota-onalarning doimiy qo‘llab-quvvatlashi, iliq munosabatlari bola uchun ichki motivatsiyani oshiradi, bu esa uning ijtimoiylashuv jarayonini yanada samarali qiladi. Psixologik xavfsizlik bolaga nafaqat jamoada o‘z o‘rnini topishga yordam beradi, balki uning ruhiy sog‘lig‘ini saqlash va ijtimoiy muvozanatni barqarorlashtirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, til — ijtimoiylashuvning asosiy vositasi. Bola o‘z fikrini ifodalash, boshqalarni tushunish, muomala qilish orqali jamiyatga kirib boradi. Vygotskiy tilni “fikrlash vositasi” deb atagan. Shuning uchun nutq rivoji orqada qolgan bolalar ijtimoiylashuvda ham qiyinchiliklarga duch kelishadi. Pedagog va psixologlar nutq rivojini faollashtirish orqali ijtimoiylashuvni kuchaytirishni tavsiya etishadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘il va qiz bolalar ijtimoiylashuv jarayonida turlicha omillarga ko‘proq sezgir bo‘lishadi. Masalan, qizlar ko‘proq verbal muloqot va hamkorlikka intilsa, o‘g‘il bolalar raqobatbardosh o‘yinlar orqali o‘zini namoyon etadi. Bu farq tarbiyaviy yondashuvlarni differensial qilish zarurligini bildiradi. Erkin va syujetli rolli o‘yinlar bolaning ijtimoiy rolni anglashiga, hissiy jihatdan boshqalarni tushunishga, empatiya va hamkorlik ko‘nikmalarini egallashga xizmat qiladi. O‘yin — bu bola uchun “ijtimoiy laboratoriya” bo‘lib xizmat qiladi. Elkonin va Leontyev

fikricha, o'yin — maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyatidir va bu faoliyat orqali bola jamiyat hayotiga moslashadi. Bolalar o'z guruhlarida ma'lum maqomlarga ega bo'ladi (masalan: lider, kuzatuvchi, tashabbuskor, chetlatilgan). Bu maqomlar bolaning o'z-o'ziga baho berishiga va keyingi ijtimoiy aloqalariga kuchli ta'sir qiladi. Cooleyning "Looking-glass self" (oynadagi men) kontseptsiyasiga ko'ra, bola boshqalar uni qanday ko'rishini his qilgan holda o'zini shakllantiradi. Demak, ijtimoiy aloqa — bu faqat tashqi emas, balki ichki shaxsiy o'zgarish manbai hamdir. Tilning ijtimoiylashuvdagi roli juda muhim bo'lib, u nafaqat aloqa vositasi, balki bolaning fikrlash, his-tuyg'ularini ifodalash va ijtimoiy munosabatlarni boshqarish vositasidir. Nutq rivoji zaif bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda eta olmasligi, boshqalar bilan samarali muloqot qura olmasligi natijasida ijtimoiy cheklovlariga duch keladi, bu esa ularning jamiyatdagi o'rnini cheklashi mumkin. Shuning uchun, tarbiyachilar va ota-onalar nutq rivojini rag'batlantirishga, bolalarni ko'proq suhbatga jalb qilishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bundan tashqari, o'yinlarning turli turlari, xususan, erkin va syujetli rolli o'yinlar bolaning ijtimoiy va hissiy intellektini rivojlantirishda, empatiya va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy guruhdagi maqomlar bolaning o'zini anglashini chuqurlashtiradi va shaxsiy identitetning barqaror shakllanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, o'zini boshqalar nazarida qanday ko'rishini anglash bolaga o'z harakatlarini va munosabatlarini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi, bu esa ijtimoiylashuvning ichki jarayonlarini yanada boyitadi. Shunday qilib, til va o'yinlar bolalar ijtimoiylashuvida muhim vositalar bo'lib, ular yordamida bola nafaqat tashqi muhitga moslashadi, balki o'zining ichki dunyosini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, umumiy ma'lumotlarga asosan ijtimoiylashuv omillari 2 ga ajraladi. Bular: tashqi hamda ichki omillar.

Tashqi omillarga mikro(kichik), mezo(o'rta), makro(katta) va mega(eng katta) omillar kiradi. Bu omillarni har biri bolaning ijtimoiylashuv jarayonida o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, mikromillarga turli ijtimoiy, davlat hamda xususiy tashkilotlar, shuningdek, oila va ta'lim tashkilotlarini misol qilib keltira olamiz. Har bir sanab o'tilgan mikroomillar o'z navbatida, shaxs shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazishini kuzatishimiz mumkin.

N.V.Andreyenkova fikricha, ijtimoiylashuvning uch bosqichi mavjud:

- 1) birlamchi ijtimoiylashuv yoki bolaning ijtimoiylashuvi;
- 2) marginal ijtimoiylashuv - o'smirlik (oraliq);
- 3) barqaror, ya'ni konseptual -17-18 -23-35 yosh.

Boshqa mualliflar ham ijtimoiylashuvning uch bosqichini ajratib ko'rsatadilar, ammo hayot sikllariga muvofiq:

Bolalik;
yoshlik;

yetuklik.

Har bir bosqichga ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtirishning muayyan darajasi mos keladi. Birinchi bosqichda oila, ikkinchi bosqichda maktab, uchinchi bosqichda ishlab chiqarish ijtimoiylashuvning yetakchisi hisoblanadi.

Ba'zi tadqiqotchilar butun ijtimoiylashuv jarayonini uch bosqichga bo'ladilar:

- 1) pubertatdan oldingi (12 yoshgacha);
- 2) o'smirlik (12-16-18 yosh);
- 3) kattalar - 18 yoshdan keyin.

G.M.Andreeva ijtimoiylashuvning uchta asosiy bosqichini ajratib ko'rsatadi: mehnatgacha, mehnat va mehnatdan keyingi. Mehnatgacha bo'lgan bosqichda oila, maktabgacha bolalar muassasalari, maktab, oliy o'quv yurti deb hisoblasa, mehnat bosqichidagi ijtimoiylashuvning asosiy instituti deb u ishlab chiqarish jamoasini hisoblaydi. Mehnatdan keyingi bosqichga kelsak, olimning fikricha, bu masala ochiqligicha qolmoqda.³

Bola shaxsining shakllanishi uzluksiz davom etadigan ijtimoiylashuv jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, u yosh davrlarida turlicha mazmunga ega. Turli mualliflar tomonidan o'rganilgan hamda taqdim etilgan bosqichlar mavjud bo'lsada, ularni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkin:

Ijtimoiylashuvning har bir davri bolaning yangi tajribalarni o'zlashtirishi, ijtimoiy rollarni egallashi va turli muhitlarga moslasha olishi bilan harakterlanadi.

Avvalo, birlamchi ijtimoiylashuv bosqichi bolalik davriga to'g'ri keladi. BU davrda bola oila muhiti, tengdoshlar bilan muloqot va dastlabki munosabatlar orqali ijtimoiy tajribaning eng muhim qismini egallaydi. Ota-ona, tarbiyachi va kattalarning o'zaro munosabati bola uchun "ijtimoiy dunyo"ning ilk modeli sifatida xizmat qiladi. Shu sababdan bu bosqichda mehr, qo'llab quvvatlash, xavfsizlik hissi, muloqot madaniyati hamda yashash muhitiga xos milliy qadriyatlar bola ijtimoiylashuvining asosiy omillari hisoblanadi. Oila bolaning qadriyatlari, me'yorlarga munosabati, o'ziga va boshqalarga nisbatan ishonchning shakllanishida yetakchi institut bo'lib qoladi.

Ikkinchi bosqich, ya'ni o'smirlik va yoshlik davrida bola o'z ijtimoiy identitetini faol ravishda izlaydi. Bu bosqichda tengdoshlar guruhi, maktab va ta'lim tashkilotlari asosiy ijtimoiy muhitga aylanadi. Bola avvalgidan ko'ra mustaqil qaror qabul qilishni boshlaydi, jamoada o'z rolini sinab ko'radi, me'yor va talablarni ongli ravishda qabul qilish yoki rad etish jarayonini kechiradi. Bu davrda o'qituvchilar, sinfdoshlar, do'stlar bola uchun ijtimoiy tajriba manbai sifatida birinchi o'ringa chiqadi. Shuning uchun ijtimoiylashuv jarayoni faqat moslashish emas, balki shaxsning o'zini anglashi, o'z "men"ini shakllantirish bilan ham tasdiqlash mumkin

Uchinchi bosqich- kattalik davri, barqaror ijtimoiylashuv bosqichi deb qaraladi. Bu davrda inson o'zining ijtimoiy rolini to'liq anglaydi, kasbiy faoliyatga kiradi,

³ "Fundamentalnaya sotsiologiya" V.I. Dobrenkov, A.I. Kravchenko. (v pyatnadsati tomox). INFRA-M-2005

mustaqil iqtisodiy va ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Ish jamoasi, kasbiy muhit va ijtimoiy institutlar shaxsning keying rivojlanish omiliga aylanadi. Ayni paytda qadriyatlar, e'tiqotlar, ijtimoiy me'yorlarga munosabat barqarorlashib, hayotiy pozitsiya shakllanadi.

Umuman olganda, bolaning ijtimoiylashuvi uzluksiz jarayon bo'lib, har bir bosqich o'ziga xos mazmun va sharoitlarga ega. Bolalik davri tajriba yig'ish va asosiy qadriyatlarni qabul qilish bosqichi, o'smirlik o'zini izlash va ijtimoiy rolni topish, yetuklik esa jamiyat bilan barqaror integratsiya va mas'uliyatli faoliyat bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli har bir bosqichni bola rivojlanishining alohida, ammo o'zaro bog'liq bo'g'inlari sifatida ko'rish muhimdir.

Bolalar ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi jihati ular jamiyatda sodir bo'layotgan holatlarga baho bera olmaydi va nazorat qilish ko'nikmasiga ega emas. Ular faqatgina o'zlashtira oladi. Ya'ni taqlidchanlik bolalarda juda yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ijtimoiylashuv jarayonidagi omillar bir necha mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. Bu mexanizmga quyidagilarni misol sifatida keltira olamiz:

I.P.Podlasiy tasnifi bo'yicha:

Bostirish mexanizmi, uning mazmuni muayyan g'oya, fikr, xohish, istaklarni ongdan chiqarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashqi va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm ham o'z o'rnida ixtiyoriy va g'ayri ixtiyoriyga bo'linadi. G'ayriixtiyoriy mexanizm - unutishdir. Ixtiyoriy bostirish mexanizmi esa iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashqi bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarqalgan usulidir;

Ajratish mexanizmi. Bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o'zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bog'liq. Ajratish mexanizmi odatda nizolarni hal qilishda kuzatiladi O'z-o'zini cheklash mexanizmi. Bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do'stlarinikidan ko'ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o'z-o'ziga hurmati pasayadi, yomon o'qiy boshlaydi. Bu o'z "Men"ini cheklab qo'yish, qiyinchiliklar oldida o'z qolishidir. Ba'zi hollarda o'z-o'zini cheklash mexanizmini qo'llashni oqlasa bo'ladi. Chunki bu holatda moslashuv sodir bo'lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o'z-o'zini cheklash, o'zo'ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o'z salohiyatini bilmay turib tarbiyalanuvchi ilk muvaffaqiyatsizlikdan so'ng boshlagan ishini tashlab qo'yadi, oqimda suza boshlaydi;

Loyihalash mexanizmining mohiyatini o'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash tashkil qiladi. O'ziga, boshqalarga qarshi qaratilgan salbiy hissiyotlar bilan inson o'ziga bo'lgan hurmatni saqlab qoladi. Shubhali inson hammadan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin hisoblaydi;

Identifikatsiyalash ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmidir. Identifikatsiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o'zini o'rtoqlari bilan qiyoslaydi.

Identifikatsiya ob'ekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo'lishi mumkin. Identifikatsiyaning to'liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud;

Identifikatsiya mexanizimi introeksiya mexanizimi bilan juda bog'liq. Bunda boshqalarning xislatlari o'zgarmagan holda o'zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa ham uning natijalarini anglab olish qiyin emas

Empatiya mexanizmi, ya'ni boshqa odamning hissiy holatiga hamdard bo'lish. Shaxsning muammo, qiyinchiliklarini yengishga yordam berish hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega;

Intellektuallashuv mexanizmida katta yoshdagi tarbiyalanuvchi abstrakt fikrlay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo'lini o'zi uchun emas, go'yoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi 27 hayotiy muhim muammolarga (kasallik, boshqa maktabga o'tish, institutga kirish) duchor bo'lganda namoyon bo'ladi;

Harakatlarni bekor qilish mexanizmi fikr, hissiyot, harakatlarni susaytirish uchun qo'llaniladi. Tarbiyalanuvchi kechirim so'raganida, uning harakatlari kechirilishi va sof vijdon bilan harakat qila boshlashiga ishonadi. Ko'p shaxslar shu tarzda komillikka erishishadi.⁴

I.P. Podlasiy tomonidan taklif etilgan yuqoridagi ijtimoiylashuv mexanizmlari shaxsning jamiyatga moslashuvi va ijtimoiy tajribani o'zlashtirish jarayonini tizimli ravishda yoritib beradi. Mazkur tasnif bolalik davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tahlil qilinganda, ayrim mexanizmlar erta yosh davrida faol namoyon bo'lishi, boshqalari esa faqat keyingi yosh bosqichlarida shakllanishi aniqlanadi. Ayniqsa, 5–7 yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvida ushbu mexanizmlarning selektiv ravishda namoyon bo'lishi ularning kognitiv, emotsional va irodaviy rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mazkur yosh davrida identifikatsiya va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan introeksiya mexanizmlari yetakchi o'rin tutadi. Bola o'z xulq-atvorini ota-ona, tarbiyachi, tengdoshlar hamda ijtimoiy jihatdan ahamiyatli obrazlarga moslashtiradi, ularning qadriyatlarini va xulq me'yorlarini bevosita o'zlashtiradi. Shu bilan birga, empatiya mexanizmi elementar darajada shakllanib, bolada boshqalarning hissiy holatini sezish, hamdardlik bildirish va yordam ko'rsatishga intilish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu holat ijtimoiy munosabatlarning barqarorlashuvida muhim omil hisoblanadi.

Bostirish mexanizmi mazkur yosh davrida asosan g'ayriixtiyoriy shaklda, ya'ni unutish orqali amalga oshadi. Ongli, ixtiyoriy bostirish mexanizmi esa iroda va refleksiv tafakkurning yetarli darajada shakllanmaganligi sababli bolalarda to'liq namoyon bo'lmaydi. Ajratish mexanizmi esa bolalarda yoqimsiz vaziyatlardan chekinish, nizoli holatlardan qochish kabi sodda xatti-harakatlar orqali ifodalanadi.

⁴ "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" B.S.Abdullayeva, G.B.Rizayeva.(o'quv-uslubiy qo'llanma)

Shu bilan birga, o‘z-o‘zini cheklash, intellektuallashuv va harakatlarni ongli ravishda bekor qilish kabi mexanizmlar 5–7 yosh davri uchun murakkab hisoblanadi. Ushbu mexanizmlar shaxsiy refleksiya, abstrakt tafakkur va rivojlangan iroda tizimini talab qilgani sababli, ular asosan keyingi yosh bosqichlarida shakllanadi. Loyihalash mexanizmi esa mazkur davrda faqat elementar va bevosita shaklda namoyon bo‘lib, barqaror psixologik himoya mexanizmi darajasiga yetmaydi.

I.P. Podlasiy tasnifi asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, 5–7 yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvida identifikatsiya, introeksiya, empatiya, ajratish hamda g‘ayriixtiyoriy bostirish mexanizmlari yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizmlarni hisobga olgan holda tashkil etilgan tarbiyaviy va psixologik ta’sirlar bolalarning ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishini samarali ta’minlaydi.

References:

1. “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi” B.S.Abdullayeva, G.B.Rizayeva. (o‘quv-uslubiy qo‘llanma)
2. Tomlinson, J. (1999). *Globalization and Culture*. Cambridge: Polity Press.
3. “Fundamentalnaya sotsiologiya” V.I. Dobrenkov, A.I. Kravchenko. (v pyatnadsati tomax). INFRA-M-2005
4. Andreeva G.M. **Ijtimoiy psixologiya**. – Moskva: Aspekt Press, 2018. – 448 b.
5. Podlasiy I.P. **Pedagogika**. – Moskva: Prosveshcheniye, 2017. – 576 b.
6. Vygotskiy L.S. **Psixologiya rivojlanishining asoslari**. – Moskva: Pedagogika, 2005. – 512 b.
7. Elkonin D.B. **Bolalik psixologiyasi**. – Moskva: Akademiya, 2001. – 304 b.
8. Leontyev A.N. **Faoliyat. Ong. Shaxs**. – Moskva: Politizdat, 2004. – 352 b.
9. Bandura A. **Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi**. – Nyu-York: Prentice Hall, 1977. – 247 b.
10. Cooley C.H. **Inson tabiati va ijtimoiy tartib**. – Nyu-York: Scribner’s, 1902. – 384 b.
11. Maslow A.H. **Motivatsiya va shaxs**. – Nyu-York: Harper & Row, 1987. – 369 b.
12. Dobrenkov V.I., Kravchenko A.I. **Fundamental sotsiologiya**: 15 jildda. – Moskva: INFRA-M, 2005.
13. G‘oziyev E.G‘. **Yosh davrlar psixologiyasi**. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – 296 b.